Ta'lim jarayonida optimal o'zaro ta'sir usullarini izlash va yangi sharoitlarda shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirishda muayyan holatlar – o'qituvchilar oldida yuzaga keladigan muammolarni bahs-munozara paytida aniq keyslar muhokamasini amalga oshirdik.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarni talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga tayyorlash boshlang'ich pedagogik tajribaga qarab farqlanadi, u an'anaviy kasbiy muloqot masalalari bilan bir qatorda, elektron ta'lim aloqalari masalalarini ham o'z ichiga oladi, interfaol tarzda olib boriladi. Ta'lim jarayonida tinglovchilar o'zlarida kommunikativ muloqot usullari va texnikasini o'zlarida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Umid qilamizki, bizning tajribamiz hamkasblar uchun foydadadn xoli bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637.

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-farmoni.

(3). Катышева И.Ю. Опыт организации комплаенс – контроля в рамках СВК. Основные принципы и стандарты комплаенс-контроля. Доклад на заседании. 2005.

(4).М.В.Стурикова.Коммуникативная компетенция: к вопросу о дефиниции и структуре. Научн. статья. Инновационные проекты и программы в образовании. Научн. жур., № 6, 2015.

(5). www.sciyencye-education.ru.

Kudiyarova Gauxar Iyambergenovna (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali mustaqil izlanuvchisi)

UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING BOSHQARUV KO'NIKMASINI SELF-MENEJMENT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmasini self -menejment yondashuvi asosida rivojlantirish metodologiyasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *maktab rahbarlari, boshqaruv ko'nikmasi, self-menejment, konseptual metodologiya, natijadaorlik.*

Кудиярова Гаухар Иямбергеновна (Независимый соискатель Каракалпакского филиала Национального института педагогики имени Т.Н.Кари-Ниязи)

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ СЕЛФ-МЕНЕДЖМЕНТА

Аннотация. *В данной стате освещена методология развития управленческих навыков руководителей общеобразовательных школ на основе подхода селф-менеджмента.*

Ключевые слова: *руководители школ, управленческие навыки, селф-менеджмент, концептуалная методология, результативность.*

Kudiyarova Gauxar Iyambergenovna (Independent Researcher, Karakalpak Branch of the National Institute of Pedagogy named after T.N.Qori-Niyoziy)

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE MANAGEMENT SKILLS OF GENERAL EDUCATION SCHOOL LEADERS BASED ON SELF-MANAGEMENT

Annotation. *This article highlights the methodology for developing the management skills of general education school leaders based on the self-management approach.*

Keywords: *school leaders, management skills, self-management, conceptual methodology, effectiveness.*

Kirish. Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonida rahbar kadrlardan muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki shaxsiy sifatlarini oshirish, shaxsiy kompetentlilik darajasini rivojlantirish ham talab etilmoqda. Bu borada zamonaviy yondashuv sifatida "Self-menejment"dan foydalanish mumkin. Self-menejment rahbar kadrlarning vaqti, resurslari, qobiliyatlari, maqsadlari va boshqa shu kabi jihatlarini samarali boshqara olishiga xizmat qiladi. Self-menejment nafaqat kasbiy sohada, balki shaxsiy hayotda ham katta ustunlik beradi. Uning yordamida stressli holatlarni kamaytirish, shaxsiy intizomni kuchaytirish va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Aslida, bu faqat rahbar kadrlar uchun emas, balki barcha insonlar uchun qo'llanilishi mumkin.

Rahbar kadrlar kasbiy faoliyatida har kun ko'plab mas'uliyatli vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi. Bu borada eng asosiy muammo vaqtni samarali boshqara olish va maqsadlariga erishish uchun to'g'ri yo'lni tanlashdir. Ayrim rahbarlar tabiiy ravishda va tug'ma qobiliyati asosida o'z vaqti, resurslarini yaxshi boshqara oladi, boshqalar esa bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun maxsus bilim va ko'nikmalarni o'z-

lashtirishi kerak bo‘ladi. Biz ushbu maqolada self-menejmentning asosiy tamoyillari, uning afzalliklari va samarali usullari haqida batafsil ma’lumot berib, uni umumta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati misolida ko‘rib chiqamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Self-menejment (o‘zini-o‘zi boshqarish) bu maktab rahbarlarining shaxsiy hayotidagi va kasbiy faoliyatidagi ishlarini samarali tashkil qilish qobiliyatidir [1]. U maktab rahbarlarining o‘z maqsadlarini aniq belgilashi, ichki va tashqi resurslarini to‘g‘ri taqsimlashi va o‘zining ish samaradorligini oshirishiga yordam beradi. Har bir rahbar o‘zining shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi hamda ularni amalga oshirish uchun harakat qilishi, bu hayot qonunidir.

Self-menejmentning asosiy ahamiyati shundaki, u maktab rahbarlariga ish faoliyatini olib borish va shaxsiy hayoti davomida muvozanat saqlash hamda ularga ijobiy o‘zgarishlar kiritib borish imkonini beradi. Tajribalardan ma’lumki, bugungi kunda biznes va shaxsiy rivojlanish sohasidagi ko‘plab tadqiqotlar self-menejmentni muvaffaqiyat kaliti deb baholaydi.

Umumta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam berishi mumkin bo‘lgan self-menejmentning quyidagi asosiy tamoyillarini keltirish mumkin [1;2-b.] .

Shaxsiy mas’uliyatni oshirish maktab rahbari o‘z faoliyati davomida maktabdagi barcha jarayonlarga, berilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashga, natijalarga erishishga, ijobiy va asoslangan qarorlar qabul qilishga hamda o‘z hayotining samarali kechishiga javobgardir. Bu uning o‘z xatolarini tan olishi, muvaffaqiyatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi va tashqi omillar emas, o‘z harakatlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishi, faoliyat yuritishini anglatadi.

Rejalashtirish va strategik fikrlash har bir vazifa aniq maqsad va reja asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ishlarni samarali rejalashtirish maktab rahbarlarining vaqti, resurslari va energiyasini tejash imkonini beradi. Strategik fikrlash esa uzoq muddatli rejalar tuzish va kelajakdagi muvaffaqiyat uchun zarur yo‘nalishni belgilashda muhimdir.

Intizom va iroda kuchini rivojlantirish – doimiy mashqlar va amaliy ko‘nikmalar orqali ichki intizomni mustahkamlashga yordam beradi. Kunlik vazifalarni tartibli bajarish, keraksiz chalg‘ishlardan qochish va o‘z-o‘zini nazorat qilish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Samarali resurs boshqaruvi – vaqt, energiya, moddiy va intellektual resurslarni to‘g‘ri taqsimlashga yordam beradi. Maktab rahbarlari o‘z resurslarini qanday boshqarsa, uning samaradorligi ham shunga bog‘liq bo‘ladi. Vaqtni rejalashtirish, energiyani tejash, moliyaviy resurslarni to‘g‘ri yo‘naltirish va bilimlarni doimiy ravishda oshirish muvaffaqiyatli insonning muhim jihatlaridan biridir.

To‘g‘ri qaror qabul qilish – har bir qarorni tahlil qilish va eng samarali yo‘lni tanlashga yordam beradi. Samarali qaror qabul qilish ko‘nikmasi tahlil qilish, alternativ yechimlarni ko‘rib chiqish va xavflarni baholashni o‘z ichiga oladi, buni maktab rahbarlari avvaldan ko‘ra bilishi muhim hisoblanadi. Bunda ma’lumotlarga asoslangan holda, xolis va ratsional yechimlar chiqarish lozim.

Maktab rahbarlarining kasbiy faoliyati va shaxsiy hayoti davomida ishlarini samarali tashkil etish va amalga oshirishda vaqtdan unumli foydalanish, vaqtni boshqarishi muhim hisoblanadi.

Vaqt bu har bir insonning eng qimmatli resurslaridan biri hisoblanadi. U orqaga qaytarib bo‘lmaydigan va to‘ldirib bo‘lmaydigan resurs bo‘lgani sababli, undan samarali foydalanish har bir shaxs, shu jumladan, maktab rahbarlari uchun ham o‘ta muhimdir. Vaqtni to‘g‘ri boshqarish ish samaradorligini oshiradi, kasbiy faoliyat va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadi. Vaqtdan unumli foydalanish orqali ustuvor vazifalarni aniq belgilash, muammolarga samarali yechim topish, stressni kamaytirish, ish yuklamasini to‘g‘ri taqsimlash, maqsadlarga tezroq erishish, faoliyatda yuqori natijalarga erishish, shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash kabi ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Zamonaviy vaqt boshqaruvi usullari insonning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ehtiyojlariga qarab tanlanadi. Shuning uchun mavjud manbalar, adabiyotlar tahlillari asoslanib [1,2,3], eng mashhur va samarali usullar sifatida pomodoro texnikasi, eisenhower matritsasi, To-Do ro‘yxati, Time Blocking kabilarni tahlil qilamiz.

“Pomodoro” texnikasi. Bu texnika Franchesko Chirillo tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, diqqatni jamlash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Bu usul quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Xususan, 25 daqiqalik diqqat bilan ishlangan ish; 5 daqiqalik tanaffus, bu 4 marta takrorlanganidan keyin uzunroq 15–30 daqiqalik tanaffus, har bir sessiyada aniq bir vazifaga e’tiborni yo‘naltirish lozim. Bu metod, ayniqsa, tez chalg‘iydigan va qisqa muddatli diqqatni ushlab turish qiyin bo‘lgan insonlar uchun foydali.

Eisenhower matritsasi. Bu eng muhim va shoshilinch vazifalarni aniqlash uchun keng qo‘llaniladi. Bunda vazifalar to‘rt toifaga ajratiladi: darhol bajarilishi kerak bo‘lgan muhim va shoshilinch ishlar, reja-

lashtirilishi va muayyan muddatda bajarilishi lozim bo‘lgan muhim, lekin shoshilinch emas ishlar, imkoniyat bo‘lsa, boshqalarga topshirish mumkin bo‘lgan shoshilinch, lekin muhim emas bo‘lgan ishlar, rad etilishi yoki keyinroq bajarilishi mumkin bo‘lgan muhim ham, shoshilinch ham emas ishlar. Bu usul rahbarlar uchun o‘ta samarali bo‘lib, ularga resurslarni to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi.

To-Do ro‘yxati. Bu kunlik vazifalarni aniq va tartibli shaklda to‘zib borishga yordam beradi. Bunda quyidagi tamoyillar e’tiborga olinadi: kunlik yoki haftalik vazifalarni yozish; muhimlik darajasiga qarab tartiblash; bajarilgan vazifalarni belgilash; real maqsadlar qo‘yish. Bu usul insonga kun davomida nimalarni bajarish kerakligini aniq ko‘rishga va samarali ishlashga yordam beradi.

Time Blocking. Bu metodda ish kuni aniq vaqt bloklariga bo‘linadi va har bir blok aniq bir vazifaga bag‘ishlanadi. Bu usul quyidagi tarzda amalga oshiriladi: kunlik rejani vaqt oraliqlariga taqsimlash; har bir vaqt oralig‘ida faqat bitta ishga e’tibor qaratish; tanaffuslarni ham rejalashtirish; o‘rtadagi chalg‘itishlarni minimallashtirish. Bu usul rahbarlar va ijodiy kasb vakillari uchun, ayniqsa, samarali.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu metodlar tahlilidan kelib chiqib, rahbarlar vaqtni boshqarishda alohida e’tibor berishlari kerak, chunki ular doimiy ravishda muhim qarorlar qabul qiladi va jamoalarni boshqaradi. Shuning uchun maktab rahbarlari o‘z jamoalari bilan birgalikda ish jarayonini yaxshilash uchun vaqt boshqaruvi strategiyalarini joriy etishlari maqsadga muvofiqdir.

Maktab rahbarlarining kasbiy faoliyati va shaxsiy hayoti davomida ishlarini samarali tashkil etish va amalga oshirishda maqsadni qo‘yish muhim hisoblanadi.

Maqsadlar to‘g‘ri va aniq qo‘yilishi muvaffaqiyatning asosiy omilidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aniq va real maqsadlar qo‘ygan rahbarlar o‘z natijalariga tezroq erishishadi. Bunda SMART metodidan foydalanish mumkin. Ushbu metod orqali maqsadni aniq va tushunarli qo‘yishga erishish (aniqliq), – rivojlanishni baholash uchun me’yorlardan foydalanish (o‘lchanadigan), – real va amalga oshirish mumkin bo‘lgan maqsadlar qo‘yish (erishiladigan),– maqsad umumiy strategiyaga mos kelishi kerak (dolzarb),– maqsadga erishish uchun aniq muddat belgilanishi kerak (muddatli).

Shuningdek, maktab rahbarlarining faoliyatida vaqt bilan birga, motivatsiyani oshirish ham muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Motivatsiya bu maqsadga erishishidagi asosiy kuch manbaidir. U ichki va tashqi motivatsiya bo‘lib, ikki turga bo‘linadi.

Ichki motivatsiya – shaxsiy ehtiyoj va orzular asosida shakllanadi. Bu turdagi motivatsiya odamni o‘z xohishi va ichki qiziqishlari asosida harakat qilishga undaydi. Masalan, yangi bilimlarni egallash, shaxsiy maqsadlarga erishish, ijodiy qoniqish va shaxsiy o‘sish.

Tashqi motivatsiya – moliyaviy rag‘batlar, mukofotlar, ijtimoiy maqtovlar orqali shakllanishi mumkin. Bu borada tashqi motivatsiya sifatida maosh va mukofotlar, hurmat va ijtimoiy maqomlar, tan olish va jamoa e’tiroflarini keltirish mumkin.

Self-menejmentning komponentlaridan biri sifatida emotsional intellektdir, bu ham maktab rahbarlarining faoliyatida kerakli vositalardan hisoblanadi. Emotsional intellekt – rahbar kadrlarning his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarish qobiliyati deb aytish mumkin. Bu qobiliyat yuqori darajada rivojlangan rahbarlar va muvaffaqiyatli shaxslarda uchraydi. Emotsional intellekt quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi: o‘z his-tuyg‘ularini anglash – o‘zining ichki his-tuyg‘ularini bilishi va ularni nazorat qila olishi, o‘z-o‘zini boshqarish – kuchli emotsiyalarni nazorat qilish, stress va xavotirni kamaytirish, *empatiya* – atrofdagilarning his-tuyg‘ularini tushunish va ular bilan munosabatni yaxshilash, *muloqot qobiliyati* – o‘z fikrlarini tushunarli va ta’sirli ifodalash, konstruktiv muloqot olib borish.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda ma’lumotlarning ko‘pligi, ilg‘or tajribalar har qadamda uchrayotganligi hisobga olinganida maktab rahbarlari kundalik malaka oshirib borishi, o‘zini-o‘zi rivojlantirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun doimiy rivojlanish – muvaffaqiyatli rahbar kadrlarning asosiy xususiyatidir. Shaxsiy va kasbiy o‘sishga e’tibor qaratgan rahbarlar o‘z maqsadlariga tezroq erishadi va raqobatbardoshliklarini saqlab qoladi. Shuning uchun maktab rahbarlari o‘zini-o‘zi rivojlantirib borishi uchun doimiy ravishda yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirish uchun turli sohalarga oid kitoblar o‘qishi, ilmiy tadqiqotlar va maqolalar orqali yangi tendensiyalardan xabardor bo‘lishi, muvaffaqiyatli shaxslarning tajribalarini o‘rganishi, kasbiy faoliyatiga oid bilimlarini oshirish uchun onlayn kurslarga yozilishi, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun turli xil tadbirlarda qatnashishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun ma’naviy va psixologik kurslarni o‘rganishi, yangi texnologiyalar va dasturiy ta’minotni o‘zlashtirishi, har xil tillarni o‘rganish va muloqot mahoratini rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Umumiy xulosa sifatida self-menejment har bir maktab rahbari uchun muhim bo‘lib, u hayot sifatini oshirish, muvaffaqiyatga erishish va o‘zini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Kun-

lik rejalashtirish, motivatsiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish va emotsional intellektni kuchaytirish orqali har bir shaxs o‘zini mukammal boshqarishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Кадырова С.В., Немсева Е.А., Тулчинский Г.Л. Селф-менеджмент. Учебное пособие, Санкт-Петербург, 2013, 113 с.

(2). Назмутдинов В.Я., Яруллин И.Ф. Управленческая деятельность и менеджмент в системе образования личности. Казань, «Школа», 2013, 360 с.

(3). Симонова А.А. Самоменеджмент как технология управления и саморазвития педагога. “Инновационные проекты и программы в образовании”, № 2, 2019, с. 57–65.

Matmusayeva Muhayyo Azamovna (FarDU o‘qituvchisi; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com; ORCID:0009-0005-4893-4114)

BOLALAR O‘YIN MATNLARINING KOGNITIV VA LINGVOMADANIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada matn ma’lum bir davr mahsuli, muayyan voqelikni til vositalarida aks ettiruvchi lisoniy qobiliyat mahsuli ekanligi, bola o‘ziga tushunarli matn orqali ongida olamning antropotsentrik tartibga solingan olam manzarasini yaratishi ta’kidlangan. Shuningdek, matnning kognitiv va lingvomadaniy jihatdan ahamiyati shakl va mazmun birligi, umumiylik va xususiylik uyg‘unligi tamoyilida aks etishi, bolalar uchun yaratilgan matnlarda bolalarga xos ichki kechinmalarni tasvirlash natijasida voqelik vujudga kelishi misollar orqali dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *matn, antropotsentrizm, lingvomadaniyat, lisoniy qobiliyat, omil.*

Матмусаева Мухайё Азамовна (преподаватель ФерГУ; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com; ORCID:0009-0005-4893-4114)

КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ ДЕТСКИХ ИГРОВЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация. *В данной статье подчеркивается, что текст является продуктом определенного периода, результатом языковой способности, отражающей конкретную действительность языковыми средствами, и что ребенок формирует в своем сознании антропоцентрически упорядоченную картину мира через понятный ему текст. Также отмечается, что когнитивное и лингвокультурологическое значение текста проявляется в принципе единства формы и содержания, гармонии общего и частного. На примерах показано, что в текстах, созданных для детей, реальность возникает в результате описания внутренних переживаний, характерных для детей.*

Ключевые слова: *текст, антропоцентризм, лингвокультура, языковая способность, фактор.*

Matmusayeva Mukhayyo Azamovna (Teacher at FerSU; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com; ORCID:0009-0005-4893-4114)

COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL ASPECTS OF CHILDREN'S PLAY TEXTS

Annotation*. This article emphasizes that text is a product of a specific period and a result of linguistic ability to reflect a particular reality through language. It highlights that children create an anthropocentrically ordered worldview in their minds through texts they can understand. Additionally, the cognitive and linguocultural significance of text is shown to be reflected in the principle of unity between form and content, and the harmony of general and specific aspects. Examples demonstrate how reality emerges in children's texts through the depiction of inner experiences unique to children.*

Keywords: *text, anthropocentrism, linguoculture, linguistic ability, factor.*

Kirish. O‘zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari, matnning lingvopoetik, pragmatik, derivatsion, kommunikativ xususiyatlariga bag‘ishlangan muayyan ishlar o‘zida antropotsentrik yo‘nalishni aks ettirgan bo‘lib, bu masala o‘zbek bolalar folklori, ya’ni, og‘zaki ijodi hamda yozma badiiy matni misolida antropotsentrik jihatdan tadqiq etishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Sir emaski, dunyo tilshunosligida matnni antropotsentrik yondashuv asosida o‘rganish, muayyan kommunikativ vaziyatlarga milliy-madaniy omillarning ta’siri hamda tilni universal-obyektiv, subyektiv-milliy aspektda uning sohibi bilan birga o‘rganish va o‘rgatish masalasi tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu esa asrimiz boshlaridanoq lingvokulturologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv va psixolingvistik tamoyillarning taraqqiyotiga va istiqboliga zamin hozirladi. Matn va nutq esa shunchaki, sintaktik-semantik jihatdan birikkan nisbiy mustaqil gaplar ketma-ketligigina emas, balki muayyan vaziyatda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan verbal muloqot uculi, so‘zlashuvchilarning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqeyi, tafakkuri, milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi. No-